

Rossiya Federatsiyasiga borayotgan yo'lovchilar diqqatiga

2021 10 Dekabr

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va inson farovonligini nazorat qilish federal xizmati (Rospotrebnadzor) "omikron" shtammining o'ziga xos xususiyatlari tufayli PZR-testlarining amal qilish muddatini qisqartirishga qaror qildi.

"COVID-19ga PZR usulida olingan laboratoriya tekshiruvi manfiy natijasining amal qilish muddati laboratoriya natijalari olingan vaqtdan boshlab 48 soatni tashkil etadi" - deyiladi hujjatda.

Endi, 8-dekabrda boshlab, bunday sertifikatlar faqat 48 soat (test olingan vaqtdan boshlab) amal qiladi. Eslatib o'tamiz, ilgari testlarning amal qilish muddati 72 soatni tashkil etgan.

Ushbu o'zgarish Rossiya Federatsiyasiga borayotgan chet elliklar va Rossiyaga sayohat qilishni rejalashtirayotgan sayyohlar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Eslatib o'tamiz, Rossiya Federatsiyasiga borishni rejalashtirayotgan yo'lovchilar «Путешествую без COVID-19» ilovasidan ro'yxatdan o'tishlari talab etiladi - <https://www.uzairways.com/uz/press-center/news/rossiyaga-jonab-ketishni-rejalashtirayotgan-yolovchilar-uchun-muhim-xabar-0>

Telegram: t.me/uzbekistanairways